

SALJUQIYLARNING O'ZBEK DAVLATCHILIGI TARIXIDAGI O'RNI

Boltayev Abdurasul

Husanxonova Kifoyatxon

JDPU Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi

(Tarix) 1-kurs magistranti

Annotatsiya: Maqolada Saljuqiylar davlatining boshqaruv tizimi va uning o'zbek davlatchiligiga ta'siri tahlil etiladi. Xususan, markazlashgan boshqaruv, harbiy-ma'muriy tizim va huquqiy an'analarning davomiyligi yoritiladi. Nizomulmulk qarashlari asosida davlatchilik tajribasining ahamiyati ochib beriladi.

Аннотация: В статье рассматривается система управления государства Сельджуков и её влияние на узбекскую государственность. Освещается преемственность централизованного управления, военно-административной системы и правовых традиций. Значение государственности раскрывается через взгляды Nizomulmulk.

Annotation: The article examines the governance system of the Seljuk state and its influence on Uzbek statehood. It highlights the continuity of centralized administration, military organization, and legal traditions. The importance of statecraft is explained through the ideas of Nizomulmulk.

Kalit so'zlari: Saljuqiylar, o'zbek davlatchiligi, turkiy davlatlar, davlat boshqaruvi, sultonlik, devon tizimi, Xorazmshohlar, Temuriylar, siyosiy tarix, Markaziy Osiyo, Saljuqiylar, Dandanakon jangi, "Siyosatnoma", Markaziy Osiyo xalqlari, iqto tizimi.

KIRISH

O'zbek davlatchiligi tarixi qadimiy ildizlarga ega bo'lib, turli davrlarda shakllangan siyosiy tizimlar, davlat boshqaruvi an'analari va turkiy sulolalar faoliyati bilan chambarchas bog'liqdir. Markaziy Osiyo hududida yuzaga kelgan davlatlar nafaqat mintaqaning siyosiy taraqqiyotiga, balki butun musulmon Sharqi sivilizatsiyasining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan. Shunday davlatlardan biri Saljuqiylar davlati bo'lib,

u XI–XII asrlarda Yaqin va O‘rta Sharqda kuchli siyosiy tuzumni barpo etgan va turkiy xalqlarning davlatchilik an‘analarini yangi bosqichga olib chiqqan. Saljuqiylar davlati turkiy qabilalar asosida shakllanib, qisqa vaqt ichida keng hududlarni egallagan va markazlashgan davlat boshqaruvi tizimini yaratgan. Bu davlatda sulton hokimiyati, devonlar tizimi, harbiy boshqaruv, soliq siyosati va viloyatlarni boshqarish mexanizmi aniq yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, u keyingi davr turkiy davlatlari uchun muhim tajriba maktabi vazifasini bajargan. Ayniqsa, davlat boshqaruvida islomiy siyosiy an‘analar va turkiy davlatchilik tajribasining uyg‘unlashuvi Saljuqiylar davrining muhim xususiyati hisoblanadi. Saljuqiylar davlati o‘zbek davlatchiligi tarixida bevosita hududiy davlat sifatida emas, balki siyosiy va ma‘muriy tajriba maktabi sifatida muhim o‘rin egallaydi. Ularning davlat boshqaruvi tizimi, siyosiy an‘analari va harbiy tashkiloti keyinchalik Xorazmshohlar, Temuriylar va boshqa turkiy sulolalar davlat boshqaruvida o‘z aksini topgan. Shu jihatdan Saljuqiylar davlati o‘zbek davlatchiligi tarixining shakllanishida muhim tarixiy bosqichlardan biri sifatida baholanadi. Mazkur maqolaning dolzarbligi shundan iboratki, Saljuqiylar davlatining siyosiy va ma‘muriy boshqaruv tajribasi o‘zbek davlatchiligi tarixining uzviyligini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda milliy davlatchilik tarixini chuqur o‘rganish, turkiy sulolalar merosini ilmiy asosda tahlil qilish va tarixiy tajribani tadqiq etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Maqolaning maqsadi — Saljuqiylar davlatining o‘zbek davlatchiligi tarixidagi o‘rnini ilmiy jihatdan tahlil qilish, ularning davlat boshqaruvi tizimi, siyosiy tuzilmasi va tarixiy ahamiyatini yoritishdan iborat. Maqolaning vazifalari esa quyidagilardan iborat: Saljuqiylar davlatining shakllanish tarixini o‘rganish; davlat boshqaruvi tizimini tahlil qilish; turkiy davlatchilik an‘analari bilan bog‘liqligini aniqlash; o‘zbek davlatchiligi tarixidagi o‘rnini baholash.

ASOSIY QISM

Saljuqiylar turkiy qabilalardan biri bo‘lib, ular O‘g‘uz turklariga mansub edi. Sulola nomi qabila boshlig‘i Saljuq ibn Duqoq nomi bilan bog‘liq. X asr oxiri – XI asr boshlarida saljuqiylar Markaziy Osiyodan Eron hududlariga ko‘chib o‘tib, siyosiy kuch sifatida shakllana boshladilar. 1040-yilda **Dandanakon jangida** saljuqiylar G‘aznaviylar ustidan

g'alaba qozonib, mustaqil davlat asoslarini yaratdilar. Shu voqeadan so'ng Tug'ulbek davlatni kengaytirib, kuchli siyosiy markazga aylantirdi.

Saljuqiylar boshqaruvi markazlashgan sultonlik tizimi asosida qurilgan bo'lib, u o'z davrining ilg'or davlat boshqaruv tajribalarini mujassam etgan.

1. Davlat boshqaruvining asosiy tuzilishi:

Saljuqiylar davlatida oliy hokimiyat sulton qo'lida bo'lgan. Davlat asoschisi To'g'ulbek sulton unvonini qabul qilib, siyosiy hokimiyatni mustahkamladi. Keyinchalik Alp Arslon va Malikshoh davrida davlat yanada kuchayib, boshqaruv tizimi takomillashdi. Sulton davlatning oliy rahbari sifatida: harbiy qo'shinlarga boshchilik qilgan, qonun chiqarish vakolatiga ega bo'lgan, yuqori lavozimlarga tayinlovlar amalga oshirgan. Shu bilan birga, diniy jihatdan xalifa nomigagina oliy hokim sifatida tan olingan, ammo amalda siyosiy hokimiyat sulton qo'lida jamlangan.

2. Vazirlik va markaziy boshqaruv:

Saljuqiylar davlat boshqaruvida vazirlik muhim o'rin tutgan. Vazir davlatning kundalik boshqaruv ishlarini olib borgan, moliya, soliq va ma'muriy tizimni nazorat qilgan. Bu lavozimni egallagan eng mashhur shaxslardan biri Nizomulmulk hisoblanadi. Nizomulmulk davlat boshqaruvini isloh qilib, uni yanada markazlashtirdi. Uning "Siyosatnoma" asari davlatni boshqarish, adolatli hukm yuritish va tartibni saqlash bo'yicha muhim qo'llanma sifatida tarixda qolgan.

"Vazir davlatning barcha ma'muriy ishlarini boshqaruvchi shaxs hisoblangan" [5, 22-b.].

3. Devon tizimi:

Davlat boshqaruvi maxsus idoralar — devonlar orqali amalga oshirilgan:

Devon al-insho — rasmiy hujjatlar va yozishmalar;

Devon al-moliya — moliya va soliqlar;

Devon al-jaysh — harbiy ishlar;

Devon al-barid — aloqa va nazorat tizimi. Bu tizim davlat boshqaruvida tartib va samaradorlikni ta'minlagan.

“Devon tizimi Saljuqiylar davlatida markaziy boshqaruv organi bo’lgan” [7, 280-300-b].

4. Harbiy boshqaruv va iqto tizimi

Saljuqiylar davlati harbiy kuchga tayangan. Asosiy harbiy kuchni turk otliq qo’shinlari tashkil etgan. Davlat harbiy xizmat evaziga yer berish — **iqto** tizimini joriy etgan. Iqto tizimining mohiyati: harbiy va amaldorlarga yer ajratilgan, ular shu yer hisobidan daromad olgan, evaziga davlatga xizmat qilgan. Bu tizim davlatning iqtisodiy va harbiy asoslarini mustahkamlashga xizmat qilgan.

“Iqto tizimi harbiy va moliyaviy boshqaruvning asosi bo’lgan” [10, 101-b.].

5. Diniy siyosat va ma’rifat

Saljuqiylar sunniy islomni qo’llab-quvvatlagan va diniy-ma’rifiy faoliyatga katta e’tibor bergan. Shu maqsadda **Nizomiya** madrasalari tashkil etilgan. Bu madrasalar: ilm-fan rivojiga xizmat qilgan, davlat uchun malakali kadrlar tayyorlagan, diniy birlikni mustahkamlagan.

“Sulton – siyosiy hokimiyatni, xalifa – diniy hokimiyatni ifodakagan” [8, 56-58-b].

6. Mahalliy boshqaruv tizimi

Davlat hududi viloyatlarga bo’lingan bo’lib, ularni noiblar va hokimlar boshqargan. Ular: markaziy hokimiyatga bo’ysungan, soliqlarni yig’gan, tartib-intizomni saqlagan. Bu tizim katta hududni samarali boshqarish imkonini bergan.

Saljuqiy turklar boshqaruv tizimi o’z davri uchun mukammal va samarali tizimlardan biri bo’lgan. Unda markazlashgan hokimiyat, kuchli harbiy tizim va aniq ma’muriy boshqaruv uyg’unlashgan. Vazirlik, devonlar va iqto tizimi davlatni mustahkamlab, uning uzoq vaqt davomida barqaror faoliyat yuritishini ta’minlagan. Saljuqiylar tajribasi keyingi musulmon davlatlari boshqaruv tizimiga katta ta’sir ko’rsatgan va tarixda muhim o’rin egallagan. Saljuqiylar davlatchiligining o’zbek davlatchiligi tarixidagi yana bir muhim jihat ilmi-fan va madaniyat rivojiga qo’shgan hissasidir. Saljuqiylar davrida madrasalar, masjidlar, kutubxonalar va karvonsaroylar qurilgan. Nizomiy madrasalar ilm-fan rivojiga katta hissa qo’shgan. Bu madrasalar Sharq ilmiy muhitining rivojlanishiga sabab bo’lgan. Movarounnahr hududida ham ilmiy an’analar rivojlanib, keyinchalik temuriylar davrida

yuksak darajaga ko'tarilgan. Tarixchi A.Yu. Yakubovskiy bu haqida shunday yozadi: "Saljuqiylar davrida shakllangan ilmiy va madaniy muhit keyingi Sharq uyg'onishiga asos bo'ldi" [2, 66-67-b.].

"Saljuqiylar davlatining paydo bo'lishi Yaqin va O'rta Sharq tarixida yangi davrni boshlab berdi. Ular turkiy harbiy an'analarni islomiy davlat boshqaruvi bilan uyg'unlashtira oldilar." [2, 66-67-b.].

Saljuqiylar davlatida markazlashgan boshqaruv tizimi shakllangan bo'lib, unda sulton oliy hukmdor hisoblangan. Davlat boshqaruvida vazirlar va harbiy amaldorlar muhim rol o'ynagan. Ayniqsa, mashhur davlat arbobi **Nizomulmulk** tomonidan ishlab chiqilgan boshqaruv tizimi davlat mustahkamligini ta'minlagan. Nizomulmulk o'zining "Siyosatnoma" asarida davlat boshqaruvi haqida quyidagicha fikr bildiradi: "Davlatning mustahkamligi adolatli boshqaruvga bog'liqdir. Agar hukmdor adolat bilan ish yuritsa, mamlakat barqaror bo'ladi". [3, 20-35-b.].

"Xorazmshohlarning idoraviy shakli va muassasalari Saljuqiylar va ayniqsa Sulton Sanjar davri bilan o'xshashligini ko'rsatmoqda" [9, 19-20-b.].

Saljuqiylar davlatchiligining o'zbek davlatchiligi tarixidagi o'rni, avvalo, boshqaruv tizimining davomiyligida namoyon bo'ladi. Movarounnahr hududida shakllangan Qoraxoniylar, Xorazmshohlar va Temuriylar davlatchiligida Saljuqiylar boshqaruv tizimining ayrim jihatlari davom ettirilgan. Jumladan, devon tizimi, vazirlik lavozimi, harbiy boshqaruv va yer-mulk siyosati o'zaro o'xshashlik kasb etadi. Tarixchi V.V. Bartold Saljuqiylar davlatining turkiy davlatchilikka ta'siri haqida shunday yozadi: "Saljuqiylar davlat boshqaruvi Sharqdagi keyingi turkiy davlatlar uchun muhim siyosiy maktab vazifasini bajargan" [6, 90-91-b.].

Saljuqiylar davlatchiligining harbiy tizimi ham o'zbek davlatchiligi tarixida muhim o'rin egallaydi. Harbiy qo'shinlar otliq askarlardan iborat bo'lib, ular yuqori intizomga ega bo'lgan. Harbiy boshqaruv tizimi aniq tashkil etilgan. Lashkarboshi, amir ul-umaro kabi lavozimlar mavjud bo'lgan. Bu harbiy an'analari keyinchalik temuriylar va o'zbek xonliklari qo'shinida ham davom etgan.

Saljuqiylar davrida adliya tizimi ham muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Shariat qonunlari asosida sud ishlari yuritilgan, qozilar va muftiylar faoliyat olib borgan. Bu tizim jamiyatda adolatni ta'minlashga xizmat qilgan. Davlat boshqaruvida adolat tamoyili ustuvor bo'lgan. Nizomulmulk shunday yozadi: "Adolatli podshoh xalq qalbida hurmat topadi va davlat uzoq yashaydi". Bu fikr Saljuqiylar davlatida adolat tamoyili muhim o'rin tutganini ko'rsatadi.

Bu boshqaruv modeli keyinchalik Markaziy Osiyodagi ko'plab davlatlarda qo'llanilgan. Ayniqsa, yer-mulk tizimi — **iqto** tizimi iqtisodiy boshqaruvning muhim shakliga aylangan. Saljuqiylar davlati bevosita Markaziy Osiyoda uzoq hukmronlik qilmagan bo'lsa-da, ularning siyosiy va harbiy an'analari mintaqa davlatlari rivojiga kuchli ta'sir ko'rsatdi.

Birinchidan, saljuqiylar turkiy harbiy aristokratiyaning davlat boshqaruvida faol rol o'ynashini kuchaytirdi. Bu an'ana keyinchalik Xorazmshohlar davlatida ham davom etdi.

Ikkinchidan, davlat boshqaruvida turkiy va forsiy ma'muriy tajriba uyg'unlashdi. Bu model keyinchalik Temuriylar davlatchiligi tizimida ham aks etdi.

"Saljuqiylar davlati turkiy xalqlar davlatchiligi tarixida muhim bosqich bo'lib, u Markaziy Osiyoda keyingi davlat tuzilmalarining shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatgan." [1, 85-86-b.]. Saljuqiylar davrida ilm-fan, madaniyat va ta'lim rivojlandi. Ko'plab madrasalar tashkil etildi. Ayniqsa, **Nizomiya madrasalari** o'z davrining eng yirik ilmiy markazlari bo'lgan. Bu madrasalarda islom huquqi, falsafa, matematika va tibbiyot fanlari o'qitilgan. Natijada Yaqin Sharq va Markaziy Osiyoda ilmiy muhit rivojlangan.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Saljuqiylar davlati o'zbek davlatchiligi tarixida muhim siyosiy va ma'muriy tajriba maktabi sifatida alohida o'rin tutadi. Saljuqiylar tomonidan yaratilgan davlat boshqaruvi tizimi, markazlashgan sultonlik hokimiyati, devonlar faoliyati, harbiy-ma'muriy tuzilma va viloyatlarni boshqarish mexanizmi keyingi turkiy davlatlar rivojiga kuchli ta'sir ko'rsatgan. Ayniqsa, davlatni markazlashtirish, hokimiyatni tartibga solish, soliq tizimini yo'lga qo'yish va harbiy boshqaruvni mustahkamlash borasidagi tajriba

O'rta Osiyo hududida shakllangan davlatlar, jumladan, Xorazmshohlar davlati va Temuriylar davlatida davom ettirilgan.

Saljuqiylar davrida turkiy xalqlarning siyosiy madaniyati, davlat boshqaruvi an'analari va islomiy davlat tuzilmasi uyg'unlashib, mustahkam siyosiy tizim vujudga keldi. Bu tizimda sulton oliy hokimiyat egasi bo'lib, devonlar orqali davlat boshqaruvi amalga oshirilgan, viloyatlar hokimlar orqali nazorat qilingan, harbiy kuch esa davlat barqarorligini ta'minlagan. Ushbu boshqaruv modeli keyingi davr o'zbek davlatchiligi shakllanishida muhim tarixiy asos bo'lib xizmat qilgan.

Shuningdek, Saljuqiylar davlati davrida ilm-fan, madaniyat, diniy-ma'rifiy muassasalar va huquqiy tizim rivojlandi. Madrasalar, kutubxonalar, ilmiy markazlar tashkil etilishi natijasida islomiy ilm-fan taraqqiy etdi va davlat boshqaruvida ilmiy yondashuv shakllandi. Bu jarayon O'rta Osiyo hududida ilmiy va siyosiy tafakkurning rivojlanishiga katta hissa qo'shdi. Saljuqiylar davrida shakllangan ma'rifiy muhit keyinchalik Movarounnahr hududida ilm-fan va davlat boshqaruvining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatdi.

Saljuqiylar davlatining yana bir muhim jihati turkiy xalqlarning siyosiy birligi va davlat qurish tajribasini mustahkamlashda namoyon bo'ladi. Ular tomonidan yaratilgan kuchli markazlashgan davlat modeli turkiy sulolalar uchun amaliy siyosiy tajriba vazifasini bajargan. Bu esa o'zbek davlatchiligi tarixining shakllanishida muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Saljuqiylar davlatining harbiy kuchi, diplomatik aloqalari, hududiy boshqaruv tizimi va iqtisodiy siyosati mintaqada barqaror siyosiy muhitni ta'minlashga xizmat qilgan.

Umuman olganda, Saljuqiylar davlati o'zbek davlatchiligi tarixida davlat boshqaruvi tizimining shakllanishi, siyosiy an'analarning rivoji, turkiy davlat qurilishi tajribasining mustahkamlanishi va islomiy sivilizatsiya taraqqiyotiga qo'shgan hissasi bilan alohida ahamiyatga ega. Ularning davlat boshqaruvi tajribasi keyingi davr davlatlari uchun muhim tarixiy asos bo'lib xizmat qilgan. Shu sababli Saljuqiylar davlati merosini chuqur o'rganish o'zbek davlatchiligi tarixining uzviyligini ochib berishda, milliy davlatchilik an'analari ilmiy asosda yoritishda va tarixiy taraqqiyot jarayonlarini to'g'ri baholashda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ahmedov B. **O‘zbekiston tarixi manbalari**. – Toshkent: O‘qituvchi, 2001.
2. Yakubovskiy A.Yu. **O‘rta Osiyo xalqlari tarixi**. – Toshkent, 1997.
3. Nizomulmulik. **Siyosatnoma**. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010.
4. Karimov Sh., Shamsutdinov R. **Vatan tarixi**. – Toshkent, 2010.
5. Bosworth C.E. **The Ghaznavids and Seljuqs**. – Edinburgh University Press, 1963.
6. Barthold V.V. **Turkiston mo‘g‘ullar istilosi davrida**. – Toshkent, 1990.
7. Claude Cahen. **Pre-Ottoman Turkey**.
8. Encyclopaedia Britannica. – Edinburg, 1768.
9. A.Boltayev, **“O‘zbekiston tarixi”** o‘quv qo‘llanma. – Jizzax: “Ilm nuri print” MCHJ, 2026.
10. Sevim A., Merçil E. **“Selçuklu Devletleri Tarihi”**. - Ankara, 1995.